



**Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi AJ kichik va oʻrta tadbirkorlik subyektlariga
Xizmatlar ipotekasi moliyaviy yordamini taqdim etish yuzasidan 2025-yilning
doimiy ochiq tanlovini
EʼLON QILADI**

Moliyalashtirish manbasi nomi:	Kompaniya mablagʻlari
Eʼlon turi:	Ochiq tanlov
Eʼlon qilingan sana:	2025-yil 7-may
Loyiha anketasini taqdim etish oxirgi sanasi:	2025-yil 31-dekabr
Loyiha anketasini yuborish uchun E-mail:	ipotekatanlov@gmail.com

I. Xizmatlar ipotekasi moliyaviy yordami:

Ushbu moliyaviy yordam Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi “Kichik va oʻrta biznesni moliyaviy qoʻllab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-193-son Farmoni hamda Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati (keyingi oʻrinlarda-Kompaniya) Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizomga asosan Kompaniya tomonidan taqdim etiladi.

Xizmatlar ipotekasi - moliyaviy ijara (lizing) asosida bir taraf (Kompaniya) ikkinchi taraf (loyiha tashabbuskori)ning topshirigʻiga binoan uchinchi taraf (sotuvchi)dan xizmatlar ipotekasini taqdim etish shartnomasida shartlashilgan mol-mulk (bitim obyekti)ni mulk qilib sotib olishni va uni shu shartnomada belgilangan shartlarda haq evaziga foydalanish huquqi bilan loyiha tashabbuskoriga berishni nazarda tutadigan munosabat hisoblanadi.

II. Moliyaviy yordam haqida maʼlumot:

Ushbu moliyaviy yordam ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish hamda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va qadoqlash tarmoqlari hamda goʻsht va tuxum yetishtirish yoʻnalishi boʻyicha koʻchmas mulk va asbob-uskunalar sotib olishni koʻzda tutadi.

Moliyaviy yordam — koʻchmas mulk va asbob-uskunalarining 70 foizigacha biroq oʻrta toifaga mansub tadbirkorlar uchun 10 mlrd soʻmgacha, hamda yillik daromadi 50 mlrd soʻmdan yuqori boʻlgan oʻrta toifaga mansub tadbirkorlarga koʻchmas mulk, mulkiy kompleks (tayyor biznes majmuasi)ni sotib olish koʻzda tutiladigan bitimni moliyalashtirish uchun maksimal 20 mlrd soʻmgacha;

Yillik daromadi 6 mlrd soʻmdan ortiq kichik toifaga mansub korxonalar uchun 5 mlrd soʻmgacha boʻlgan miqdorda yillik 18,0* foiz yoki boʻlib-boʻlib toʻlash sharti asosida taqdim etiladi. Boʻlib-boʻlib toʻlash shartida, loyiha muddati: 1 yil boʻlsa – 1,17 baravar, 2 yil boʻlsa – 1,31 baravar, 3 yil boʻlsa – 1,43 baravar, 4 yil boʻlsa – 1,52 barobar, 5 yil boʻlsa – 1,58 barobar, 6 yil boʻlsa – 1,62 barobar va 7 yil boʻlsa – 1,64 barobardan kam boʻlmagan miqdorda ustama qoʻshib hisoblanadi.



*Foiz stavka va ustama miqdori Kompaniyaning Aktiv va passivlarni boshqarish qo'mitasi qaroriga asosan o'zgarishi mumkin, biroq Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkadan kam bo'lmagan miqdorda.

Shuningdek, bitim obyektidagi loyiha tashabbuskorining ulushi o'rniga ulushning (bir qismining) 1,7 (bir butun o'ndan yetti) barobaridan kam bo'lmagan miqdorda ko'chmas mulk garov ta'minoti sifatida taqdim qilinsa, Kompaniyaning maksimal ulushi bitimning to'liq (100 foizi) qiymati miqdorigacha bo'lishi mumkin.

Moliyaviy yordam milliy valyutada ajratiladi.

Moliyaviy yordam 7 yilgacha taqdim etiladi (asbob-uskunalar sotib olish uchun 5 yil muddatgacha).

Asosiy qarz bo'yicha imtiyozli davr loyihaning tavsifidan kelib chiqib belgilanadi.

Moliyaviy yordamdan foydalanganlik uchun vositachilik haqi – moliyaviy yordam summasining 0,6 foizi miqdorida belgilanadi.

Sotib olinayotgan obyekt ko'chmas mulk bo'lsa, u holda mustaqil baholovchi hisoboti, agar uskuna bo'lsa akkreditatsiyadan o'tgan ekspertiza tashkilotining narx bo'yicha ekspertiza xulosasi taqdim etiladi.

III. Loyiha tashabbuskorlariga qo'yiladigan talablar:

yomon kredit tarixiga ega bo'lmashligi, kredit tarixi "Kredit-axborot tahliliy markazi" kredit byurosi ma'lumotnomasi bo'yicha C (o'rta) va undan yuqori reytingga ega bo'lishi, so'nggi 12 oy ichida bir va undan ortiq marta 90 kundan ortiq muddati o'tgan qarzдорligi mavjud bo'lmashligi;

2-son kartoteka va budget oldida muddati o'tgan qarzдорliklari mavjud bo'lmashligi;

kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha muddati o'tgan qarzдорliklari mavjud bo'lmashligi;

tugatish jarayonida va bankrotlik ishi qo'zg'atilmagan bo'lishi hamda korxona zarar bilan faoliyat yuritayotgan bo'lmashligi;

kreditga layoqatlilik darajasi uchinchi sinf va undan past hamda nolikvid balansga ega bo'lmashligi lozim.

loyihada tashabbuskorlarning kamida 30 foiz ulush bilan ishtirok etishi yoki loyiha tashabbuskorining ulushi o'rniga ulushning (bir qismining) 1,7 (bir butun o'ndan yetti) barobaridan kam bo'lmagan miqdorda ko'chmas mulk garovi bilan ta'minlash;

yigirma to'rt oydan ortiq faoliyat yuritayotgan hamda murojaat sanasida o'ttiz besh nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan o'rta tadbirkorlik subyektiga yoki murojaat sanasida o'n besh nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan kichik tadbirkorlik subyektiga mansub bo'lishi lozim (murojaat sanasida o'n besh nafar kishini doimiy ish bilan ta'minlagan o'rta tadbirkorlik subyektiga ham kichik tadbirkorlik subyektiga mansub korxonalarga taqdim etiladigan shartlar doirasida taqdim etiladi).

IV. Loyiha tashabbuskorining anketalarini baholanishi:



Loyiha anketasi tasdiqlangan kichik yoki o'rta tadbirkorga xabar yuboriladi va ulardan to'liq loyiha arizasini, biznes-rejalari hamda boshqa hujjatlarni taqdim etishlari so'raladi.

Amaldagi qonunchilik va ko'rsatmalarga muvofiq barcha talab etiladigan arizalar, hujjatlar va ma'lumotlarni quyida ko'rsatilgan mezonlarga ko'ra baholash uchun tanlab oladi.

V. Ustuvorlik beriladigan loyihalar:

yangi ish o'rinlarini yaratish soni;

ishchi xodimlarning mehnatiga haq to'lash miqdorlari nisbatan yuqoriligi;

qo'shimcha qiymat yaratilishining yuqoriligi;

"tayyor holdagi" ko'chmas mulk majmualarini sotib olish;

yashil va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish nazarda tutilgan loyihalarga ustunlik beriladi.

VI. Quyidagi loyihalar moliyalashtirilmaydi:

qimorxona va billiardxonalar, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va (yoki) ular savdosini tashkil etish uchun talab etiladigan bino va uskunalar;

savdo, umumiy ovqatlanish hamda alohida tashkil etiladigan avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari bino va uskunalari (bundan savdo va servis, yo'l bo'yi infratuzilma obyektlari, jumladan kompleks tarkibida avtomobillarga yonilg'i quyish hamda savdo shoxobchalari faoliyatini tashkil etish, "yashil" texnologiyalarni, jumladan elektromobillarni quvvatlantirishda foydalaniladigan bino va uskunalari mustasno);

transport vositalari sotib olish;

qishloq xo'jaligi yo'nalishida amalga oshiriladigan loyihalar (bundan go'sht va tuxum yetishtirish yo'nalishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va qadoqlashda foydalaniladigan bino va uskunalar mustasno).

Yuqoridagi moliyaviy yordamdan foydalanish istagida bo'lgan tadbirkorlik subyektlari ilovadagi Anketa ma'lumotlarini ipotekatanlov@gmail.com pochta manziliga taqdim etishlari mumkin.

Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon raqami +99871-205-57-57 (2094)